

«TIBBIY BIOLOGIYA UMUMIY GENETIKA» FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qo‘ng‘irotova Anorxol Inoyatovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali «Tibbiy biologiya va gistologiya» kafedrası, assistent, Termiz shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda «Tibbiy biologiya Umumiy genetika» fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishdan foydalanishda ilm-fan va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, fanlarga singdirilgan faol bilimlar, yangiliklar bilan izchil tanishtiri borishi, talabalarda hayotiy va kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur ma‘lumotlarni izchil, uzluksiz, ularning maqsadli shakllanishlariga erishish zaruriyati masalalari talqin qilingan.

Kalit so‘zlar. Kasb, bilim, ko‘nikma, maqsad, faoliyat, jarayon, axborot, kommunikatsiya, vizual, interaktiv, zamonaviy texnologiya, simulyatsiya, kasbiy kompetentlik tibbiy genetika, virtual laborotoriya, biotexnologiya Bugungi o‘qituvchi talabani faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari va vositalarini izlaydigan, ularni amaliyotga qo‘llab takomillashtira oladigan bo‘lishi zarur.

Tibbiy biologiya Umumiy genetika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish, biologiyani umumiy asosiy muammolari va tibbiy biologiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Tibbiyot biologiyasi va umumiy genetika tibbiyot, biologiya va biotexnologiya bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda muhim bo‘lgan fanlardir. O‘qitishning zamonaviy yondashuvlari o‘quv jarayonining samaradorligini baholash uchun innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi.

O‘qitishning zamonaviy yondashuvlari o‘quv jarayonining samaradorligini baholash uchun innovatsion texnologiyalardan (AKT) va boshqa samarali o‘qitish usullarini joriy etish nafaqat nazariy bilimlarni tarqatishga, balki talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, shuningdek, ularni biologiya va tibbiyot sohasidagi zamonaviy vositalar bilan ishlashga tayyorlashda yordam beradi. O‘qitishda innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, multimediya taqdimotlari: Power Poinf, Prezi va boshqalar taqdim etilgan dasturlardan foydalanish, ma‘ruza va amaliy mashg‘ulot darslarini yanada vizual va interaktiv usullardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ta‘lim sifatini oshirishda talabalarning bilim sarajasini muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun faol o‘qitish uslublaridan (holatkar, simulyatsiya, dizayn ishlaridan foydalanish, kasbiy kompetensiyalar) ni shakllantirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish zarur.

Tanqidiy fikrlashni, genetik mavjudotni tahlil qilishni va ilmiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradigan ta‘limot muhitini yaratish, talabalarni tibbiy genetika sohasidagi muammolarni hal qilishga tayyorlashni ta‘minlash, fanlararo yondashuvni rivojlantirish uchun biologiya, tibbiyot, bioinformatika va boshqa tegishli fanlar bo‘yicha bilimlarni birlashtirish zarur. Irsiy kasalliklar, molekulyar mexanizmlar va ularning klinik jihatlari to‘g‘risida tizimli tushunchalar ishlab chiqiladi.

“Tibbiy biologiya Umumiy genetika” fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni takomillashtirishda

texnologiyalarning (onlayn platformalar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar) o'quv samaradorligini oshirishda yordam beradi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish ta'limning sifat va samaradorligini oshiradi.

Xulosa. “Tibbiy biologiya Umumiy genetika” fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va interaktiv usullardan foydalanish nazariy bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga, muvozanatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivijlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim yondashuvlarining integratsiyasi talabalarda tanqidiy fikrkaushni tibbiy genetika sohasidagi murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlikni, shuningdek irsiy kasalliklar va molekulyar mexanizmlarni tizimli tushunishni shakllantirishga imkon beradi. Unnovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini yanada takomillashtirishni ta'minlaydi, bu esa zamonaviy jamiyat uchun dan takablariga javob beradigan yuqori nalakali tayyorlashga imkon beradi.